IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

ILLOKUTIV AKTNING IFODALANISHIDA SUPERSEGMENT STILISTIK VOSITALARNING VAZIFASI

Yadgarova Zebiniso Tolibovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va
adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0002-2665-1886
Qosimjonova Yodgora Qosimjonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich
2 XTA-26 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23885589

Annotatsiya. Ushbu maqolada illokutiv aktning ifodalanishida supersegment stilistik vositalarning vazifasi tahlil qilinadi. Nutq akti nazariyasiga ko‘ra, gap faqat ma’lumot beribgina qolmay, so‘zlovchining maqsadini ham ifodalaydi; bu maqsad esa ko‘pincha leksik birliklar bilan emas, balki intonatsiya, mantiqiy urg‘u, pauza, temp va tembr kabi supersegment vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda bir xil gapning supersegment vositalarga qarab turli illokutiv kuch, ya’ni buyruq, iltimos, so‘roq, kinoya, ta’na kasb etishi misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tahlil jarayonida badiiy matndan olingan misol ham pragmalingvistik jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: illokutiv akt, supersegment vositalar, intonatsiya, mantiqiy urg‘u, pauza, pragmatika, stilistika.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat tuzilishi jihatidan emas, balki nutqiy faoliyatdagi vazifasi nuqtayi nazaridan ham o‘rganish asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu yo‘nalishning nazariy asosini J.L. Ostin va J.R. Syorl yaratgan nutq akti nazariyasi tashkil etadi [1; 2]. Unga ko‘ra, so‘zlovchi biron gap aytish bilan muayyan harakatni bajaradi: va’da beradi, buyuradi, iltimos qiladi va hokazo. Gapning shu maqsadga yo‘nalgan jihati illokutiv akt deb ataladi.

Illokutiv akt tushunchasi pragmatikaning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, u so‘zlovchining muayyan gapni aytish orqali ko‘zlagan kommunikativ maqsadini yoritib beradi. Boshqacha qilib aytganda, inson nutqi davomida faqat gap tuzish bilan cheklanib qolmay, ushbu gapi orqali ma’lum bir harakatni ham amalga oshiradi.

Illokutiv akt nazariyasining shakllanishi ingliz faylasufi va tilshunosi J.L. Ostinning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Olimning “How to Do Things with Words” asari nutqning mohiyatini tadqiq etishda muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Ostin til birliklari yordamida inson nafaqat voqea-hodisalarni tasvirlashi yoki ma’lum bir ma’lumotni yetkazishi, balki buyruq berish, ogohlantirish, kechirim so‘rash kabi kommunikativ harakatlarni ham amalga oshirishini asoslab beradi [1]. Keyinchalik J.R. Syorl bu harakatlarni tasniflab, ularni ifodalovchi vositalar qatoriga urg‘u va intonatsion konturni ham kiritadi [2; 3].

Illokutiv aktning o‘ziga xosligi shundaki, uning mazmuni faqat gapning lug‘aviy yoki grammatik tuzilishi bilan chegaralanmaydi. Nutqning real kommunikativ qiymati ko‘p jihatdan

so‘zlovchining niyati va muayyan nutqiy vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “Eshik ochiq” shaklidagi darak gap mazmuniga ko‘ra eshikning ochiqligi haqida axborot beradi. Biroq muayyan vaziyatda ushbu gap tinglovchini eshikni yopishga undovchi bilvosita iltimos yoki ko‘rsatma vazifasini ham bajarishi mumkin. Demak, bir xil lingvistik shakl turli kommunikativ sharoitlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo‘lishi mumkin. Illokutiv kuch illokutiv aktning asosiy belgisi hisoblanib, so‘zlovchining gap orqali qanday harakatni amalga oshirayotganini ko‘rsatadi.

Bunday holatda so‘zlovchining niyatini tinglovchiga yetkazishda supersegment vositalar muhim o‘rin tutadi. Supersegment vositalar deganda nutqdagi alohida tovushlardan yuqoriroq darajada namoyon bo‘ladigan, butun so‘z, so‘z birikmasi yoki gapning talaffuz xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan hodisalar tushuniladi [4; 9]. Gapning intonatsiyasi, mantiqiy urg‘usi, pauzalanishi, nutq tempi, ritmi va ovoz balandligi so‘zlovchining kommunikativ maqsadini o‘zgartirishi, aniqlashtirishi yoki kuchaytirishi mumkin. Shu sababli supersegment vositalarning asosiy vazifasi nutqning yashirin yoki qo‘shimcha kommunikativ ma’nolarini faollashtirish, illokutiv kuchni aniqlashtirish va tinglovchiga so‘zlovchining munosabatini to‘g‘ri yetkazish hisoblanadi. Masalan, “Sen kelyapsan” gapi tekis ohangda aytilsa, oddiy xabar sifatida qabul qilinishi mumkin. Agar gap oxirida ovoz ko‘tarilsa, u savol yoki tasdiq kutish mazmunini ifodalaydi. Demak, gapning asosiy leksik tarkibi o‘zgarmagan bo‘lsa ham, uning talaffuz xususiyatlari tinglovchining gapni qanday izohlashiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois supersegment stilistik vositalar illokutiv aktning yuzaga chiqishida muhim omillardan biri hisoblanadi: ular so‘zlovchining kommunikativ niyatini kuchaytirish va tinglovchiga yetkazilayotgan mazmunning ma’lum jihatlarini ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Intonatsiya supersegment vositalar orasida alohida o‘rin egallaydi. U nutq jarayonida ovoz ohangining ko‘tarilishi va pasayishi, uning o‘zgarishi hamda gapning umumiy ohangdorligini qamrab oladi. Intonatsiya orqali so‘zlovchi o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini ifodalashi, tinglovchining e’tiborini ma’lum nuqtaga yo‘naltirishi va gapning qanday maqsadda aytilayotganini ko‘rsatishi mumkin [5; 10; 12]. Quyidagi misollar buni yaqqol ko‘rsatadi:

1. “Eshik ochiq.” (pasayuvchi ohang – xabar); “Eshik ochiq?” (ko‘tariluvchi ohang – so‘roq); “Eshik ochiq...” (cho‘ziq ohang va pauza – “yopib qo‘y” degan bilvosita iltimos).

2. “O‘tiring!” – keskin pasayuvchi ohangda buyruq, ohista va tekis ohangda esa xushmuomala taklif.

3. “Juda vaqtli keldingiz!” – kechikib kelgan kishiga cho‘ziq, baland-pasayuvchi ohangda aytilsa, maqtov emas, ta’na va kinoya ifodalaydi.

4. Ingliz tilida “You’re leaving.” pasayuvchi ohangda xabar, “You’re leaving?” ko‘tariluvchi ohangda esa ajablanish yoki tasdiq so‘rash ma’nosini beradi; “Sit down” pasayuvchi ohangda buyruq, ko‘tariluvchi ohangda muloyim taklif sifatida qabul qilinadi [5].

Intonatsiya bilan bir qatorda mantiqiy urg‘u ham supersegment vositalardan biri bo‘lib, illokutiv aktning ifodalanishida muhim axborotni ajratish, so‘zlovchining munosabatini namoyon etish va nutqning pragmatik ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi [11]. Masalan, “Men senga yordam beraman” gapida “yordam” so‘ziga mantiqiy urg‘u berilishi so‘zlovchining aynan yordam ko‘rsatish niyatini ta’kidlaydi. Bunda urg‘u gapning oddiy xabar sifatidagi mazmunini kuchaytirib, so‘zlovchining va’da berish yoki ishontirishga qaratilgan illokutiv maqsadini namoyon etishi mumkin. Urg‘u o‘rni o‘zgarganda akt turi saqlanib qolsa ham, uning yo‘nalishi o‘zgaradi:

1. “MEN senga yordam beraman.” – boshqa kishi emas, aynan men (kafolat).

2. “Men SENGA yordam beraman.” – boshqaga emas, senga (tanlov, qarama-qarshi qo‘yish).

3. “Men senga yordam BERAMAN.” – shubha qilma, albatta (va’dani kuchaytirish); ingliz tilida “I WILL help you” ham xuddi shu vazifani bajaradi.

4. “SEN aytishing kerak.” – mas’uliyatni aniq shaxsga yuklash; “Sen AYTISHING kerak.” – yashirmaslikka qat’iy undash (direktiv akt).

Pauza ham illokutiv kuchni shakllantiruvchi vositalardan biridir. Pauza nutq jarayonida yuzaga keladigan qisqa to‘xtalish bo‘lib, illokutiv aktning ifodalanishida ogohlantirish, ta’kidlash, ikkilanish yoki fikrning muhimligini ko‘rsatishda qo‘llanadi [6; 8; 13]. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

1. “Diqqat qiling... bu juda muhim.” – pauza keyingi fikrga alohida e’tibor qaratadi va ogohlantirish kuchini oshiradi.

2. “Bilmadim... balki ertaga.” – shaklan taxmin, lekin pauza tufayli muloyim rad sifatida qabul qilinadi.

3. “Sizga aytmoqchi edim... kechiring.” – pauza so‘zlovchining ikkilanishini bildirib, uzr so‘rash aktini samimiyroq qiladi.

4. “Nima uchun odam yerni zahar dorilaydi – ammo javobgarlikka tortilmaydi?” [14, 189] – tire bilan belgilangan pauza va “ammo” so‘ziga tushgan urg‘u so‘roq shaklidagi gapni e’tiroz va ayblovga aylantiradi.

Temp va tembr ham illokutiv aktga qo‘shimcha emotsional bo‘yoq beradi. Masalan, “Tez bo‘l, kech qolamiz!” gapi tez va baland aytilsa, iltimosdan ko‘ra buyruqqa yaqinlashadi; “Rahmat, juda yordam berdingiz” gapi esa iliq tembrda samimiy minnatdorlik, sovuq va quruq tembrda kinoya sifatida qabul qilinadi.

Ko‘rib chiqilgan vositalarning vazifasini to‘liq anglash uchun ularni pragmatika va stilistika nuqtayi nazaridan baholash lozim. Pragmatika til birliklarining muloqot jarayonida qanday maqsadda qo‘llanishi, so‘zlovchining niyati va tinglovchining nutqni qanday tushunishini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasidir. Illokutiv akt pragmatikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, xabar berish, iltimos qilish, va’da berish va ogohlantirish kabi nutqiy harakatlarni o‘z ichiga oladi [3]. Stilistika esa til vositalarining turli nutq uslublarida qo‘llanishi, ularning ifodaviyligi va ta’sirchanligini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi [7]. Illokutiv aktning ifodalanishida supersegment stilistik vositalar nutqqa emotsional bo‘yoqdorlik berish, fikrni ta’kidlash va tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, supersegment stilistik vositalar illokutiv aktlarning pragmatik mazmunini shakllantirish va yuzaga chiqarishda muhim lingvistik omil hisoblanadi. Intonatsiya, mantiqiy urg‘u va pauza kabi vositalar so‘zlovchining kommunikativ niyatini ifodalash, nutqiy birliklarning illokutiv kuchini aniqlashtirish hamda tinglovchining ularni vaziyatga muvofiq talqin qilishiga xizmat qiladi. Demak, supersegment stilistik vositalarning illokutiv aktlar doirasida o‘rganilishi nutqiy maqsad, ifoda shakli va ma’no o‘rtasidagi munosabatni ochib berishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. – 2nd ed. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1975. – 168 p.
2. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
4. Crystal D. Prosodic Systems and Intonation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
5. Wells J.C. English Intonation: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
6. Wennerstrom A. The Music of Everyday Speech: Prosody and Discourse Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
7. Crystal D., Davy D. Investigating English Style. – London: Longman, 1969.
8. Yadgarova Z.T. Intonatsiya va pauzaning uslubiy xususiyatlari // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – № 6. – B. 403–407.
9. Yadgarova Z.T. Similarities and differences of supersegment devices in Uzbek and English languages // Theory and analytical aspects of recent research: International scientific-online conference. – Part 16. – Istanbul, 2023. – P. 106–109.
10. Yadgarova Z.T. The role of intonation in organizing language in both English and Uzbek languages // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2024. – № 4. – B. 188–191.
11. Yadgarova Z.T. Intonation and stress as the most important elements of a good accent // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – 2023. – Vol. 1, Issue 9. – P. 387–390.
12. Yadgarova Z.T. Intonatsiya va ohangning pasayuvchi va ko‘tariluvchi xususiyatlari // Til va til o‘qitishning zamonaviy muammolari: universitet miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 2020. – B. 145–147.
13. Yadgarova Z.T. Supersegmental possibilities of pause in English and Uzbek languages // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – 2024. – Vol. 2, Issue 3. – P. 424–427.
14. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.